

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

KREDIT FOIZ STAVKALARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

Orifova Dilnoza Obid qizi

TDIU doktoranti

orifovadilnoza1997.07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlarning foiz stavkalariga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Kredit foizlariga nafaqat bank ichki siyosati bilan bog’liq omillar, balki mamlakat iqtisodiyoti va siyosati bilan bog’liq omillar ham ta’sir ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: O’rtacha tortilgan foiz stavkasi, foiz siyosati, kredit siyosati, bank sof foydasi, kredit foizi.

Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlarning foiz stavkalari mamlakat iqtisodiyotiga yuqori darajada ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Xususan, ushbu stavkalar mamlakatning makroiqtisodiy ko’rsatkichlari jumladan, yalpi ichki mahsulot va inflyatsiyaga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. “O’zbekiston-2030” strategiyasida “**Barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minlash** yo’nalishi doirasida: banklar tomonidan taqdim etiladigan **kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida 2–3 foiz bandga pasaytirish** uchun zarur sharoitlar yaratish hamda bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish”¹ ustuvor maqsadlardan biri qilib belgilangan.

Har bir tijorat banki o’zining foiz siyosatini mustaqil ishlab chiqadi va uning qay darajadi samarali ishlanganligi kreditlar va depozitlar bo’yicha o’rnatilgan foiz stavkalariga bog’liq bo’ladi. Banklarning foiz siyosati O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 23-avgustdagi 27/4 - sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida foiz hisoblash tartibi” to’g’risidagi nizomga muvofiq yuritiladi.

A. B. Borisov esa “kredit bahosi kreditorning ssudadan foydalanganligi uchun qarzdordan oladigan foiz to’lovi yoki foiz stavkasi bo’lib, moliya-pul bozorida talab va taklif asosida bank tomonidan o’rnatiladi”² deya ta’rif bergan.

SH. Z. Abdullayeva tijorat banklarining foiz siyosatiga quyidagicha ta’rif beradi: “bank umumiy siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida bankning pul mablag’larini jalb qilish va joylashtirish sohasida foizlar o’rnatish bilan bog’liq chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo’lib, bankning likvidligi va rentabelligini ta’minlashga yo’naltirilgan. Foiz siyosatiga kengroq ta’rif beradigan bo’lsak, u foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiy munosabatlarni


¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risidagi PF-158-son Farmoni 11.09.2023

² Борисов А.Б. Большой экономический словарь. М.: Книжный мир, 2006. 860 с.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

muvoqilashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisidir”³ degan fikrni bildirgan.

Hozirda mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish doirasida turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tijorat banklari tomonidan onlayn bank xizmatlarining ko‘rsatilishi, mobil ilovalarning taqdim etilishi buning yorqin misoli. Bularning barchasi ajratilayotgan kreditlar miqdori yildan yilga o‘sib borishiga sabab bo‘lmoqda. Kredit operatsiyalari bankning aktiv operatsiyasi hisoblanib, bank uchun foizli daromad manbaidir. Kredit uchun belgilangan foiz stavkalariga ta‘sir etuvchi turli omillar mavjud bo‘lib, bu omillarni ikki guruhga ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin:



1-rasm. Kredit foiz stavkasiga ta‘sir etuvchi omillar.⁴

Ichki omillarga bank siyosati bilan bog‘liq omillarni, tashqi omillarga esa Markaziy bankning pul-kredit siyosati hamda mamlakatning iqtisodiy holati bilan bog‘liq omillarni kiritamiz. Yuqorida keltirilgan omillardan tashqari yana bir qancha omillarni, jumladan kreditni rasmiylashtirish xarajatlari, kredit riski darajasi va albatta, kreditga bo‘lgan talab darajasini ham keltirishimiz mumkin.

Amaliyotda bank kreditlarining o‘z vaqtida qaytarilmasligi (kredit riski) ham ko‘plab uchraydi. Kredit riskini yuzaga keltiruvchi bir necha sabablar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: makroiqtisodiy konyukturaning yomonlashuvi, mamlakat iqtisodiyotida to‘lovsizlik muammosining yuzaga kelishi, bank boshqaruv sifatining yomonlashuvi, mijoz moliyaviy holatining yomonlashuvi, garov obyektini bozor bahosining pasayishi, ta‘minot obyektini to‘g‘ri baholay olmaslik va boshqalar. Demak, kredit riskini ham kredit foiz stavkasiga ta‘sir etuvchi omil sifatida qarashimiz mumkin.


Umuman olganda, kredit xatarlarini kompleks baholashda samarali bo‘lgan modellardan foydalanish va xatarlarni minimallashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, jumladan loyihalar ekspertizasi sifatini oshirish kredit riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Quyida 2023-2024 yillarda respublikamiz tijorat banklaridagi milliy hamda chet el valyutasidagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi ma‘lumotlarini ko‘rib chiqamiz:

³ SH. Z. Abdullayeva. Bank ishi –T.: MOLIYA-IQTISOD,2017.-403 b.


⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI



2-rasm. Milliy valyutadagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkasi⁵
(o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda)

Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, aholiga ajratilgan kreditlar foizi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, yil davomida (+2,1) bandga yuqorilagan. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi esa o‘zgaruvchan bo‘lib eng quyi 21,1 % ni oktabr oyida, eng yuqori 22,7% ni 2024-yil mart oyida tashkil etgan. Demak, kuzatilgan davr mobaynida aholiga jaratilgan bank kreditlari bo‘yicha belgilangan foizlar tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar foizidan yuqori bo‘lib kelgan. Bu esa tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy harakatlarning yaqqol misolidir.



3-rasm. Chet el valyutasidagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari⁶

⁵ www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sahifasi)

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

(o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari, yillik hisobda)

Chet el valyutasidagi bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, qisqa hamda uzoq muddatli kredit foizlari o‘rtasida deyarli katta farq mavjud emas. Doimiy 8 -10 foiz atrofida tebranib turibdi.

Kuzatganimizdek, milliy va chet el valyutasidagi kredit foizlari o‘rtasidagi farq sezilarli darajada bo‘lib, bu holatni valyuta siyosati, valyuta resurslari hajmi va xorijiy malakatlarning iqtisodiy holati bilan bog‘lash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kredit foizlarini bozor mexanizmlari asosida pasaytirish uchun, avvalo unga ta‘sir etuvchi omillarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Foiz stavkalarini sun‘iy ravishda pasaytirish esa makroiqtisodiy darajada salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 23-avgustdagi 27/4 - sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida foiz hisoblash tartibi” to‘g‘risidagi nizom
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni 11.09.2023
3. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. М.: Книжный мир, 2006. 860 с
4. SH. Z. Abdullayeva. Bank ishi –T.: MOLIYA-IQTISOD, 2017.-732 b.
5. www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sahifasi)
6. Klichev, B. (2014). Бошқарув ҳисобида баҳо шакллантиришни такомиллаштириш масалалари. Молия, 2014(5), 10–15.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522860>
7. Ibragimov Gayratjon Artukovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
8. Қличев, Б. (2022). Истеъмолчи манфаатлари асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари таҳлили. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar, 4 (20)-сон, 170-175.
9. Ibragimov Gayratjon Artukovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
10. Ibragimov Gayratjon Artukovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
11. Ibragimov Gayratjon Artukovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
12. Самадова Наргиза Расуловна. (2024). КОРХОНА ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИНГ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИ COMPLEX ANALYSIS OF THE

⁶ www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sahifasi)

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- ECONOMIC COMPETENCE OF THE ENTERPRISE . World Scientific Research Journal, 23(2), 174–181. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3030>
13. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
14. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
15. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
16. Қличев, Б. (2021, ноябрь 19). Ички аудит хизмати фаолиятида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш масалалари. Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ маъмуриятчилиги ва халқаро солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Халқаро конференция материаллари тўплами. Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531234>
17. Самадова Наргизза Расуловна. (2024). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ИҚТИСОДИЙ САЛОҲИЯТИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА БАҲОЛАШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 95–104. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3252>
18. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>
19. Қличев, Б. (2021). Хўжалик юритувчи субъектларда ишбилармонлик фаоллиги таҳлили. Актуар молия ва бухгалтерия ҳисоби, 1 (3)-сон, 1-9. Retrieved from <https://finance.tsue.uz/wp-content/uploads/2021/06/4.-Қличев-Б.pdf>
20. Қличев, Б. (2021). Инновацион фаолиятда асосий воситалар таҳлилини ташкил этиш масалалари. Инновацион иқтисодиёт: муаммолар, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари. Қарши, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531216>
21. Қличев, Б. (2021, сентябрь 30). Меҳнат мотивациясида моддий рағбатлантириш таҳлили. Молия-банк тизимида илм-фан, таълимнинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш ва ривожлантиришда тошкент молия институтининг ўрни. Конференция материаллари тўплами, Тошкент, Ўзбекистон. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10531256>
22. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
23. Yuldashevna, R. U. (2022). Monitoring of Credit Risks as Financial Resources In Commercial Banks. *International journal of trends in business administration*, 12(1).
24. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2024). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. World Scientific Research Journal, 26(3), 177–184. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3261>
25. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2023). IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI . World Scientific Research Journal, 16(1), 20–22. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2693>